

Bizlarkim quyida imzo chekib o'zaro shartnoma tuzuvchilar bir tomondan «Gold Grown Pharma» MCHJ nomidan R.Xaydarov kelgusida «Ta'minotchi» deb nomlanadi va ikkinchi tomondan Angren Buxoriy Davlati Qiyosiy Qurultuvi Chiqar nomidan uning rahbari U. Xalilbekova kelgusida «Xaridor» deb nomlanib, quyidagi mazmunda shartnoma tuzdik.

## 1.SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. «Ta'minotchi» «Xaridor»ning talabnomasi bilan zarur dori-darmonlar, tibbiy ash'yolarni sotadi. «Xaridor» esa olgan mahsulotlari uchun to'lovni «Ta'minotchi»ning bankdagi tegishli xisob raqamiga kelishilgan muddatda o'tkazib berishni o'z zimmasiga oladi.

1.2.

(so'mda, QQS bilan)

№	Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Umumiy qiymati
1	Sterillanmagan tibbiyot qo'lqopi	dona	7 484	1 200	8 980 800
2					
3					
4					
5					
6					
7					
	Jami				8 980 800

Shartnomaning umumiy summasi: Sakkiz million to'qqiz yuz sakkiz ming sakkiz yuz so'm.

## 2. MAHSULOTNING SIFATI

2.1 «Ta'minotchi» «Xaridor»ga O'zbekiston Respublikasida Farmokologik ro'yhatdan o'tgan, tibbiyotga ishlatishga ruhsat etilgan sifat, markirovka, o'rmlar farmatsevtik va texnik talablariga javob beradigan xamda sifat sertifikatini yoki taxlil bayoniga ega bo'lgan dori-darmonlar va tibbiy mahsulotlarni sotadi.

## 3. SHARTNOMA QIYMATI VA XISOB- KITOB TARTIBI

3.1. Xisob kitob «Xaridor» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.2. Shartnoma kuchga kirib, tegishli G'aznachilik tizimidan ro'yhatdan o'tgandan so'ng «Xaridor» mablag'ni 5 (besh) bank ish kunida yetkazib beriladigan mahsulotlarning umumiy summasini 30% ni oldindan avans tariqasida «Ta'minotchi» ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

3.3. «Ta'minotchi» shartnomaning 5.3. bandiga asosan xar oyda belgilangan miqdorda mahsulotni yetkazib beradi.

3.4. «Xaridor» «Ta'minotchi» tomonidan jadval asosida yetkazib berilgan mahsulotni 70% to'lovini mahsulot yetkazib berilgan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni davomida «Ta'minotchi»ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

3.5. Shartnomada ko'rsatilgan narxlar bozor munosabatlaridan kelib chiqqan xolda, xom-ashyo narxlarini hamda xom-ashyolarning yetkazib berilishi xarajatlarini ortishi, shuningdek xorijiy valyutalarning so'mga nisbatan kurslarini ko'tarilishi natijasida, xar 3 (uch) oyda bir marotaba shartnomada ko'rsatilgan mahsulotlar narxlarini qayta ko'rib chiqiladi va mahsulot narxlarini o'zgartiriladi. Narxdagi o'zgarishlar tomonlar o'rtasida tasdiqlangan qo'shimcha kelishuv orqali amalga oshiriladi.

## 4.TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1 «Ta'minotchi» quyidagi huquqlarga ega.

- Yetkazib beriladigan mahsulotni «Xaridor» tomonidan oldindan xaq to'lanishi va tegishli qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va xajmda uzil-kesil xisob kitob qilishni byudjet tashkilotidan talab qilish;

- Berilgan buyurtmaga muvofiq yetkazib beriladigan mahsulotni qabul qilishni asossiz rad etilishi natijasida etkazilgan zararni qoplanishini byudjet tashkilotidan talab qilish;

4.2. «Ta'minotchi» quyidagilarga majbur:

-«Xaridor»ga mahsulotni mazkur shartnomaga asosan belgilangan muddatlarda sifat va miqdorida yetkazib berish;

-Agar mahsulotni yetkazib beruvchi shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa byudjet tashkilotning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklar 3-kun muddatda bepul tuzatib berish;

4.3. «Xaridor» ning huquqlari:

-Yetkazib beruvchidan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

-Yetkazib beruvchidan mazkur shartnoma asosida beriladigan buyurtmaga muvofiq tegishli sifat assortimentdagi mahsulotni yetkazib berishini talab qilish;

-Mazkur shartnoma shartlari bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini yetkazib beruvchidan talab qilish;

4.4. «Xaridor» majburiyatlari:

-O'z buyurtmasi bo'yicha yetkazib berilgan mahsulotni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;